

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna

DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY:

A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) 91-100

Xudoyorov Lochinbek Bahromovich

O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING

DINAMIK TAHLILI 101-107

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY

XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI 108-113

Ismoilov Bekzod Muxidinovich

GLOBALASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION

RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI 114-118

Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY

OQIBATLARI KELIB CHIQISHI 119-135

Nishonova Shaxnozaxon

ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI

BOSHQARISH YONDASHUVLARI 136-140

Fayziyeva Aziza Azamat qizi

SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK

KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL 141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ismoilov Maxamadixon Isroilovich

IQTISODIY RATSIONALIZM:

TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR 155-165

Beshimov Xamidjon Sayidovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI

TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI 166-175

Obidov Asliddin Shavkatovich

SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR 176-181

Abduraxmov Xasan Ibroximovich

KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR

IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI 182-188

Xolova Umida Umedovna

"O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING

TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" 189-192

Rajabova Rohila Zakirovna

AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" 193-197

Kabulov Jahongir Bakhodirovich

SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI 198-202

Eshkuvvatov Jaloliddin

MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI.. 203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIIY KUCHGA KIRMGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF TRADE UNIONS IN ENSURING SOCIAL JUSTICE IN UZBEKISTAN

Khamidjon Sayidovich Beshimov

Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council
of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan,
Independent Researcher of Bukhara State University.

E-mail: beshimovhamid@gmail.com

Abstract. This article provides a scientific analysis of the fact that the promotion of human value in Uzbekistan during the years of independence was formed as a priority of state policy. In particular, the role of trade unions, considered an important institution of civil society, in determining human value by protecting the rights and interests of the working people, ensuring social justice, creating decent working conditions, is revealed. The article covers the ideas of the priority of the human interest, social protection and spiritual progress in close connection with the activities of trade unions. It also analyzed the institutional development of trade unions in the period of independence, their practical activities aimed at social partnership, raising legal culture and ensuring human value in society.

Keywords: human dignity, trade unions, years of independence, civil society, social protection, human interests, labor rights, social justice, spiritual progress.

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Beshimov Xamidjon Sayidovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinbosari,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllangani ilmiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblangan kasaba uyushmalarining mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali inson qadrini qaror toptirishdagi o'rni ochib berilgan. Maqolada inson manfaati ustuvorligi, ijtimoiy himoya va ma'naviy taraqqiyot g'oyalari kasaba uyushmalari faoliyati bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Shuningdek, kasaba uyushmalarining mustaqillik davridagi institutsional rivoji, ularning ijtimoiy sheriklik, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jamiyatda inson qadrini ta'minlashga qaratilgan amaliy faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inson qadri, kasaba uyushmalari, mustaqillik yillari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, inson manfaatlari, mehnat huquqlari, ijtimoiy adolat, ma'naviy taraqqiyot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N22>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2022-yil 11-noyabr kuni O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va a'zolariga yo'llagan tabrigida "Hozirgi kunda kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda. Buning sababini, eng avvalo, tashkilotning xalq ichiga chuqur

kirib borayotgani, odamlarning og'irini yengil qilish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lishni o'zining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olganida, deb bilamiz", degan edilar.

Darhaqiqat, bir asrdan ortiq tarixga ega, qanchadan-qancha sinovli, mashaqqatli yo'llarni bosib o'tgan kasaba uyushmalari bugun tom ma'noda xodimlarning tayanchi va suyanchiga aylandi.

Ijtimoiy davlatning yangi modelini yaratishda "Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi" degan tashabbus asosida kasaba uyushmalari bu jarayonda oldingi safda bo'lishini aytib o'tdilar. Kasaba uyushmalari faoliyatini yanada rivojlantirish va mehnat munosabatlarini yaxshilash bo'yicha kelgusi vazifalarni belgilab olish taklifini bildirdilar. [1; 5-11 b].

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2025-yil 17-oktyabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvda kasaba uyushmalari faoliyati to'g'risida fikr bildirib, "Birgalikda boshlagan ishlarimiz har bir mehnat jamoasi, har bir xodim va uning oilasi uchun manfaatli bo'layotganiga yana bir bor amin bo'ldim. Bundan buyon ham "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya Yangi O'zbekistondagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi" deya ta'kidladilar, [1; 5 b]

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida kasaba uyushmalari va davlat siyosatining o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning markazida inson turdi. Buning natijasida ijtimoiy himoya tizimi takomillashdi, mehnat munosabatlarida yangi huquqiy asoslar yaratildi. Kasaba uyushmalari esa ushbu islohotlarning amaliy natijalarini ta'minlashda vositachi sifatida maydonga chiqdi.

Mustaqillik yillari O'zbekiston tarixi va taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, inson qadri, uning jamiyatdagi o'rnini belgilashda yangi yo'nalishlar ochib berdi. Shu davrda mamlakatda barcha ijtimoiy, falsafiy jarayonlar markazida inson, uning manfaatlari, sha'ni, huquq va erkinliklari turdi. Bu jarayonda turli ijtimoiy institutlar qatorida kasaba uyushmalari ham muhim o'rin egalladi. Chunki ular nafaqat mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, balki jamiyatda inson qadrini yuksaltirish, uning ma'naviy va iqtisodiy hayotini takomillashtirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov, "Biz barcha islohotlarimizning markaziga inson manfaatlarini qo'ymas ekanmiz, hech qachon ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz", [16.24b] Biz barpo etayotgan jamiyatning mazmun –mohiyati shundaki, unda inson, uning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadi" degan edi. [15.137b]

O'zbekistonda kasaba uyushmalarining faoliyati mustaqillikka qadar ham mavjud bo'lgan, biroq ularning maqsad va vazifalari ko'p jihatdan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining talablariga bo'ysundirilgan edi. Inson qadri haqida so'z ketganda, u nazariy tushuncha sifatida tilga olingani bilan, amalda shaxs manfaatlari orqa planga surilib, umumiy siyosiy yondashuv ustuvor bo'lgan.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Quدراتilla Mirsagatovich Rafiqov o'z maqolalarida shunday degan edi: "Men O'zbekiston kasaba uyushmalari tizimida Mustaqillikning ilk yillarida ham ishlaganman. U zamonlar bu tashkilot o'z vazifasi nima ekanini esidan chiqarib yuborgan edi, desam, lofga yo'ymang. Chunki tuzum shunday edi. Davlatmi, nodavlatmi – har qanday tashkilot va muassasa borki, bitta «ustun» g'oyaga bo'ysundirilgandi. Bu oyog'i loyga botib qolgan agrar sohani qulog'idan tortish siyosati edi. O'sha kezlar qiladigan

asosiy ishimiz birlashtirilgan paxta paykallaridagi ishlarning borishi to'g'risida viloyat yoki respublika shtabiga axborot berishdan, g'alla mavsumini namunali o'tkazishdan, yaganaga, o'toqqa, terimga aholini olib chiqish va yana boshqa siyosiy ohangi yuqori bo'lgan tadbirlarda nomigagina «jonbozlik» ko'rsatishdan iborat sanalardi. To'g'ri, goh-gohida o'zimizning asosiy vazifamiz ham esga tushib qolar, bunday paytlarda odatda ishchi-xizmatchilarga sihatgohlar uchun yo'llanma tarqatibgina vijdonimiz oldida o'zimizni oqlab olganday bo'lardik. Ochig'i, shu amaldan bo'lak ko'rsatadigan ustun «ko'rsatkichimiz» ham yo'q edi. Hozirgi yoshlarga shu gaplarni aytsang, aksariyati ishonmaydi. Ayni damda yashayotgan hayotini o'z-o'zidan bo'lib qolgandek tushunishadi ular. Ammo majburiy mehnat, bolalar kuchidan foydalanish, xalqqa qora mehnat uchun yaratilgan raiyatga qaragandek qarash kayfiyati va siyosatidan qutulish, yanayam aniqrog'i, shu zahmatkash millatni qutqarib olishning o'zi bo'ldimi? Buning zahmatini ko'rganlar biladi, albatta.

Bugunga kelib, safiga 6 millionga yaqin a'zoni birlashtirgan mamlakatimizdagi eng yirik nodavlat tashkilot sanalmish kasaba uyushmalari «Yurt taraqqiyoti yo'lida birlashaylik!» shiori ostida Vatan ravnaqi va jamiyatimiz farovonligini ta'minlashga ko'maklashish borasida alohida namuna ko'rsatayotgan jamoat birlashmasiga aylandi, degan fikrimni boshqalar ham qo'llab-quvvatlashiga ishonaman. [6.2b]

Mustaqillik esa bu jarayonga tub burilish olib kirdi. Inson qadri milliy rivojlanishning asosiy mezoni sifatida e'tirof etildi va kasaba uyushmalari ham o'z faoliyatida ana shu yo'nalishga qaratildi.

Jamiyatning har qanday taraqqiyoti inson omilisiz tasavvur etilmaydi. Mustaqillik yillarida falsafiy qarashlar tizimida insonga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ya'ni, inson qadri jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning markaziga qo'yildi. Bu jarayon davlat siyosatining asosiy g'oyasiga aylandi. Inson qadriga bunday e'tibor kasaba uyushmalari faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Ular mehnatkashlarning ish sharoitini yaxshilash, turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ayniqsa mehnat huquqlarini muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajardi.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalarining inson qadrini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatish uchun, avvalo, ularning vazifalari va maqsadlariga nazar tashlash lozim. Birinchidan, kasaba uyushmalari insonning mehnat huquqlarini ta'minlashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida maydonga chiqdi. Mehnat inson hayotidagi asosiy jarayonlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy manfaatlari bilan bir qatorda, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. Insonning o'z mehnatidan qoniqishi, uning orqali jamiyatdagi o'rnini topishi va o'zini namoyon qila olishi inson qadrining yuksak darajada e'tirof etilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mustaqillik davrida O'zbekistonda kasaba uyushmalari shaxsning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda ham muhim rol o'ynadi. Inson qadrini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri – bu uning ijtimoiy xavfsizligi va barqaror hayotini ta'minlashdir. Kasaba uyushmalari turli sohalarida ishlovchi insonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ularga zarur moddiy yordamlar ko'rsatish, turli ijtimoiy masalalarda davlat va jamiyat bilan muloqot maydoni sifatida xizmat qildi.

Uchinchidan, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda faqat iqtisodiy yoki huquqiy emas, balki ma'naviy va madaniy sohada ham muhim vazifalarni amalga oshirdi. Insonning ma'naviy hayoti uning moddiy hayoti bilan bir qatorda shakllanadi. Shu bois, kasaba

uyushmalari turli madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar orqali insonning intellektual va madaniy rivojlanishiga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Bu jarayon Konstitutsiya va qator qonunlarda o'z ifodasini topdi. Inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etildi. Kasaba uyushmalari esa ushbu qonunlarni hayotga tatbiq etishda, ya'ni ularni amaliy maydonda ta'minlashda muhim ijtimoiy institut sifatida harakat qildi. Bu jarayonning falsafiy jihati shundaki, inson qadri faqat nazariy va shior darajasida qolib ketmasdan, balki hayotiy, amaliy mohiyat kasb etdi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, mustaqillik yillarida jamiyatda inson qadrining yuksalishi turli ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ular qatorida iqtisodiy barqarorlik, huquqiy davlat qurilishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi kabi masalalar bor. Ana shu jarayonda kasaba uyushmalari turli sohalarda ishlovchi millionlab insonlarning manfaatini himoya qilish orqali inson qadrini amaliy jihatdan ta'minlab keldi.

Mehnat munosabatlarida inson qadrini himoya qilish birinchi navbatda ishchi va xodimlarning huquqlarini ta'minlash, ularga munosib ish sharoitini yaratish, adolatli ish haqi tizimini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Kasaba uyushmalari ana shu vazifalarni bajarishda asosiy ijtimoiy hamkor sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi munosabatlarda kasaba uyushmalari vositachi sifatida harakat qilib, adolatli shartnomalar tuzilishini ta'minladi. Bu jarayonda insonning mehnat orqali jamiyatda o'z o'rnini topishi, uning hayotida iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikka erishishi ta'minlandi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda faqat ish joyi doirasida emas, balki uning butun hayot tarzida muhim vazifalarni bajardi. Jumladan, ular turli moddiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy nafaqalar taqsimotida ishtirok etish, mehnat jarayonida jabrlanganlarga yordam berish, ishsiz qolganlarning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Bu esa inson qadrining faqat mehnat maydonida emas, balki kundalik hayotda ham ta'minlanishiga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kasaba uyushmalarining soni va ta'sir doirasi sezilarli darajada kengaydi. Bu esa jamiyatda inson qadriga bo'lgan e'tiborning ortib borishidan dalolat berdi. Aholining turli qatlamlari – ishchilar, mutaxassislar, davlat xizmatchilari, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa soha vakillari kasaba uyushmalari orqali o'z huquq va manfaatlarini himoya qila boshladilar. Inson qadrining falsafiy jihatdan ta'minlanishi aynan shu amaliyotda o'z ifodasini topdi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, kasaba uyushmalari faoliyati insonning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash, uning huquqiy va ma'naviy maqomini yuksaltirish, hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Inson qadri faqat nazariy jihatda e'lon qilingan emas, balki ijtimoiy amaliyot orqali hayotga tatbiq etildi. Mazkur jarayonning falsafiy mohiyati shundaki, inson qadri tushunchasi abstrakt nazariya emas, balki hayotning barcha jabhalarida o'z amaliy mazmunini topgan voqelik sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov, "Demokratik islohotlarning pirovard maqsadi – inson qadrini ulug'lash, uning erkin va farovon hayot kechirishini ta'minlashdir" degan edi. [7, 9 b]

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan islohotlar, eng avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularni qonun yo'li bilan himoya qilishni nazarda tutdi. Shu ma'noda kasaba uyushmalari ham qonunchilik bazasiga tayanadigan, huquqiy davlat qurish jarayonida ishtirok etuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Inson qadrining falsafiy jihatdan yuksalishi qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining hayotga tatbiq etilishi bilan uzviy bog'liq. Mehnat sohasidagi huquqiy kafolatlarni ta'minlash esa kasaba uyushmalarining asosiy vazifasi bo'lib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida "Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar" deb belgilangan [3. 38-39b]

Kasaba uyushmalari mehnat munosabatlarida inson qadrini himoya qilishda, ayniqsa, ijtimoiy adolatni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Inson qadrining kamsitilishi yoki toptalishi ko'pincha ish joylarida, ish haqi masalalarida, mehnat sharoitlarida ko'zga tashlanishi mumkin. Shu sababdan kasaba uyushmalari ish beruvchi bilan ishchi o'rtasida adolatli munosabatlarni o'rnatishda vositachi bo'lib xizmat qildi. Bu esa falsafiy jihatdan inson qadrining hayotiy va amaliy mohiyatini ta'minlab berdi.

Kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklik tizimini rivojlantirishda ham muhim vazifalarni bajardi. Davlat, ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy sheriklik prinsipi inson qadrini ta'minlashning zamonaviy shakli sifatida shakllandi. Bu tizim mehnat munosabatlarida har bir ishtirokchining huquq va manfaatlarini e'tiborga olishni taqozo etdi. Natijada inson qadri umumiy manfaatlar tizimida e'tirof etildi va himoya qilindi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyati faqat ishchi va xodimlar doirasi bilan cheklanib qolmadi. Ular keng jamoatchilik hayotida ham ishtirok etib, turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda faol qatnashdilar. Masalan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam berish, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, yoshlarni sog'lom turmush tarzi va mehnat an'analari ruhida tarbiyalash, keksa avlod va nogironlarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalarda ham kasaba uyushmalari faol qatnashdi.

Inson qadrini yuksaltirishda yana bir muhim jihat – bu shaxsning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini rag'batlantirishdir. Kasaba uyushmalari o'z a'zolariga nafaqat huquqiy yordam ko'rsatdi, balki ularning tashabbus va takliflarini qo'llab-quvvatlab, jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minladi. Bu jarayonda inson o'zini shaxs sifatida qadrlanganini his qildi, uning fikr va mulohazalariga ahamiyat berildi. Shuning natijasida inson qadri faqat davlat yoki jamiyat tomonidan berilgan tushuncha emas, balki shaxsning o'zida ham anglanadigan, u bilan faxrlanadigan qimmat sifatida namoyon bo'ldi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikka ham e'tibor qaratdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qilishga kirishdi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib, inson huquqlari, mehnat standartlari, ijtimoiy himoya masalalarida xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy amaliyotga tatbiq etishga harakat qildi. Natijada inson qadri xalqaro mezonlar asosida ham himoya qilindi.

Falsafiy jihatdan baholanganda, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirdi. Chunki inson qadri bu faqat muayyan jamiyatning ichki ehtiyoji emas, balki butun insoniyat uchun umumiy

qimmat hisoblanadi. Shu ma'noda kasaba uyushmalari milliy qadriyatlarga tayangan holda, umuminsoniy tamoyillarni ham hayotga tatbiq etdi.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda ta'lim va tarbiya sohasiga ham katta e'tibor qaratdi. Chunki inson qadrining yuksalishi, avvalo, shaxsning bilimli va ma'rifatli bo'lishi, uning intellektual salohiyati va madaniy saviyasi bilan uzviy bog'liq. Kasaba uyushmalari turli o'quv-seminarlar, malaka oshirish kurslari, ishchi va xodimlar uchun maxsus o'quv dasturlari orqali insonning o'zini rivojlantirishiga yordam berdi. Bu esa inson qadrining faqat ish joyida emas, balki shaxsiy hayot va kelajak rivojlanishida ham ta'minlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishning ma'naviy asosi sifatida milliy g'oya va ma'naviy meros tiklandi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib bordi, madaniy tadbirlarni tashkil etdi, kitobxonlikni rag'batlantirdi, yoshlarni milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga hissa qo'shdi. Insonning ma'naviy rivojlanishi uning ijtimoiy maqomini mustahkamlaydi, o'z qadrini anglashini ta'minlaydi. Shu ma'noda kasaba uyushmalari inson qadrini ma'naviy jihatdan ham yuksaltirishga harakat qildi.

Buyuk falsafiy olim Abu Hamid al G'azzoliy falsafiy qarashlarida "Inson qadri uning jismoniy qiyofasida emas, balki ruhiy-aqliy mohiyatida" deb ta'kidlaydi. [9.18-23b] **Insonning qadri uning qalbi** bilan bog'liq ekanini, Qalb — ma'rifat va ilohiy haqiqatni anglash markazi, inson qadri **axloqiy komillik** bilan belgilanadi [10. 7-12b]

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari mehnatkashlarning sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda ham faol qatnashdi. Inson qadrining muhim mezonlaridan biri – uning sog'lom va barqaror hayot kechirishi hisoblanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, dam olish maskanlari va sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini o'tkazish orqali inson salomatligini muhofaza qilishga hissa qo'shdi. Bu esa inson qadrining moddiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan ta'minlanishiga xizmat qildi.

Mustaqillik davrida kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ayniqsa xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Xotin-qizlarni ishga joylashtirish, ularning mehnat huquqlarini muhofaza qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar inson qadrining amaliy ta'minlanishiga xizmat qildi. Bu jarayonda falsafiy jihatdan inson qadrining tenglik va adolat tamoyillari bilan ta'minlanishi namoyon bo'ldi.

Kasaba uyushmalari yoshlarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim o'rin egalladi. Yoshlar mamlakat kelajagi sifatida faqat iqtisodiy resurs emas, balki ma'naviy va ijtimoiy kapital sifatida ham jamiyatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shu ma'noda kasaba uyushmalari yoshlarning ishga joylashishi, kasb-hunarga yo'naltirilishi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etdi. Bu esa inson qadrining avlodlar davomiyligida ta'minlanishini anglatadi.

Falsafiy nuqtai nazardan olib qaralganda, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda insoniylik, tenglik, adolat, hamjihatlik, ijtimoiy sheriklik kabi tamoyillarga tayandi. Bu tamoyillar inson qadrining universal qimmat sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratdi. Inson qadri faqat bir shaxsning shaxsiy hayotida emas, balki butun jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil sifatida qaraldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda alohida o'rin egalladi. Chunki har bir shaxs o'z huquqlari va manfaatlari himoya qilinganini his etganda, uning qadri oshadi, jamiyatdagi mavqeyi mustahkamlanadi. Insonning mehnat orqali topgan daromadi adolatli taqsimlanishi, ish sharoiti xavfsiz va qulay bo'lishi, ish vaqti va dam olish vaqti qonun asosida belgilanishi inson qadrining falsafiy mohiyatini amalda namoyon qiladi. Shu jihatdan kasaba uyushmalari davlat va ish beruvchilar bilan muloqotda bo'lib, inson manfaatlarini ta'minlashda vositachi sifatida katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-85-moddalarida jamoa kelishuvlarining mazmuni va ularni tuzish tartibi belgilandi. [13.64-66b]

Kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda jamoaviylik va hamjihatlik tamoyillariga ham suyandi. Chunki inson qadri faqat alohida shaxsning manfaati bilan belgilanmaydi, balki jamiyatdagi hamjihatlik va o'zaro hurmat darajasi bilan ham belgilanadi. Uyushmalar turli sohalar vakillarini birlashtirib, ularning umumiy manfaatlarini himoya qildi. Bu jarayonda shaxsiy manfaatlar umumiy jamoaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashdi. Natijada inson o'z qadrini faqat shaxsiy emas, balki jamoaviy qimmat sifatida ham anglay boshladi.

Mustaqillik yillarida davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan "inson manfaatlarini – hamma narsadan ustun" tamoyili kasaba uyushmalari faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topdi. Ular ishchi va xodimlar manfaatlarini himoya qilish orqali davlat siyosatining insonparvar yo'nalishini ta'minladi. Falsafiy nuqtai nazardan bu jarayon inson qadrining davlat va jamiyat hayotida eng oliy qimmat sifatida e'tirof etilishini anglatadi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vazifa bajardi. Chunki ijtimoiy adolatsizlik, huquqlarning buzilishi, inson qadrining toptalishi jamiyatda turli nizolar va keskinliklarga olib kelishi mumkin. Kasaba uyushmalari esa mehnat sohasidagi mojarolarni hal qilish, nizolarni oldini olish, kelishuvlarga erishish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shdi. Bu esa falsafiy jihatdan inson qadrining tinchlik va barqarorlik sharoitida yuksalishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston kasaba uyushmalari ko'plab ijtimoiy dasturlarni amalga oshirib, inson qadrini amaliy jihatdan ta'minladi. Moddiy yordam ko'rsatish, dam olish va sog'lomlashtirish muassasalarini tashkil etish, mehnatkashlar farzandlari uchun yozgi oromgohlar ochish, kekxa va nogironlarni qo'llab-quvvatlash kabi ishlar inson qadrining hayotda to'la-to'kis namoyon bo'lishiga xizmat qildi.

Falsafiy jihatdan olib qaralganda, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda insoniylik va ijtimoiy hamdardlik tamoyillariga suyandi. Bu tamoyillar inson qadrining faqat huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham ta'minlanishiga olib keldi. Inson qadrining yuksalishi deganda faqat shaxsning moddiy farovonligi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarda o'zini erkin his etishi, o'z fikrini erkin bildirishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ham nazarda tutiladi.

Shu tariqa, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omili sifatida namoyon bo'ldi. Ular faqat mehnat munosabatlarini muhofaza qilish emas, balki inson hayotining ma'naviy mazmunini boyitish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash orqali inson qadrini e'tirof etish va yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ularning inson qadrini yuksaltirishdagi o'rnini ko'p qirrali va murakkab jarayon ekanini ko'rish mumkin. Avvalo, mehnatkash inson shaxsiga bo'lgan munosabatda keskin o'zgarish yuz berdi. Sovet davrida kasaba uyushmalari ko'proq formal tuzilma sifatida ko'rib, davlat siyosati ijrochisi vazifasini bajargan bo'lsa, mustaqillikdan keyin ularning haqiqiy ijtimoiy va fuqarolik institutlari sifatidagi ahamiyati oshdi. Bu esa inson qadrini e'tirof etishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. "Ijtimoiy adolat va aholini himoya qilish tizimi kuchli bo'lmas ekan, inson qadri haqida so'z yuritish qiyin." [11. 84b]

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishdagi o'rnini yanada teranroq anglash uchun ularning huquqiy asoslariga ham e'tibor qaratish lozim. Zero, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qabul qilingan Konstitutsiyada inson qadri, uning huquq va erkinliklari oliy qiymat sifatida e'tirof etildi. Shu asosda mehnat huquqlarini ta'minlash, insonni adolatli mehnat sharoiti va munosib turmush tarzi bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari inson qadrini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi va hayotga tatbiq etuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqdi.

Kasaba uyushmalari faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi – bu insonning sog'lom va munosib hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan ishlardir. Mehnat muhofazasi, ishchi joylarda xavfsizlik choralari kuchaytirish, ishchilar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha olib borilgan tadbirlar inson qadriining amaliy ifodasi sifatida xizmat qildi. Chunki insonning hayoti va sog'ligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bois, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari mehnat muhofazasi sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirdi, xodimlarning xavfsiz ish sharoitiga ega bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Inson qadrini anglash va hurmat qilish milliy taraqqiyotimizning eng muhim mezoniga aylanishi lozim." [8. 56 b]

Umumiy xulosalar:

1. Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni mo'tadil holatini ta'minlaydi. Davlat o'z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta'minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatmog'i, ta'lim, sog'liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e'tibor qaratmog'i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.
2. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada faollashtirish orqali erishish Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini qadriyat sifatida anglash ijtimoiy me'yorlar barqarorligini ta'minlash barobarida, ratsional ijtimoiy-shaxsiy tafakkur va pozitiv faoliyat trayektoriyasini ham shakllantiradi.
4. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirish shaxsiy ongdan keng qamrovli ijtimoiy tafakkur darajasida taraqqiyotni ta'min etish, pozitiv munosabat shakllarini belgilashda ham xizmat qiladi. Insonning sharafi va qadri uning mol-

- dunyosi yoki tashqi qiyofasi bilan emas, balki qalbining pokligi va axloqiy kamoloti bilan belgilanadi. [13.9b]
5. Inson qadrini ijtimoiy qadriyat sifatida anglash borasida davlatning roli beqiyos darajada ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida taraqqiyotga yetaklovchi, undovchi va nazorat etuvchi vazifalarni bajaradi.
 6. Inson qadrini yuksaltirishda, davlat boshqaruvi, inklyuziv institutlar yaratish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, sport, jismoniy salomatlik, ommaviy axborot vositalari, inson kapitali, shuningdek, ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik fikri, shu jumladan ijtimoiy institutlar, oila, din, ta'lim va boshqa mexanizmlardan samarali foydalanish, ularni mustahkamlash borasidagi ishlarni faollashtirish, tizimli tashkil qilish lozim.
 7. Bugungi kunda Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan biri – barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlikdir. Zamonaviy yondashuvlarda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylangan.
 8. Globallashuv sharoitida inson qadrini yuksaltirishda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlarda kasaba uyushmalari faoliyati turlicha tashkil etilgan bo'lib, ularning tajribalarini o'rganish, ijobiy natijalarni milliy tizimga tatbiq etish orqali inson qadrini yuksaltirishda yangi qadamlar qo'yish mumkin.
 9. Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning o'rni katta. Chunki inson qadri faqat moddiy ne'matlar bilan belgilanmaydi, balki uning ma'naviy dunyosi, axloqiy qiyofasi va ijtimoiy mas'uliyati bilan ham belgilanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qiladi, kitoblar, jurnallar chop etadi, xodimlar orasida ma'naviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.
 10. Ijtimoiy tasnif nuqtai nazaridan inson qadrini yuksaltirish jamiyatda tenglik, adolat, huquq va erkinlik kabi tamoyillarning ta'minlanishi orqali namoyon bo'ladi. Inson qadrini himoya qilish – bu inson huquqlarini ta'minlash, uning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini yo'lga qo'yish, shaxs erkinligi va jamiyat mas'uliyati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash demakdir.
 11. Kasaba uyushmalari tarixiy jarayonda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida shakllanib kelgan. Ular avvalo ishchi-xodimlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan boshlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan keng qamrovli ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi tizimga aylandi. Inson qadrini yuksaltirishdagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, kasaba uyushmalari inson manfaatlarini yakka tartibda emas, balki jamoaviy shaklda himoya qiladi. Bu esa shaxsiy qadr va sha'nini jamiyatning umumiy qadriyatlari tizimida mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqi", 2025-yil 17-oktabr, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 11-noyabr -O'zbekiston kasaba uyushmalari kun va kasaba uyushmalarining 120 yilligi munosabati bilan tabrigi, 2025-yil 11- noyabr, Toshkent.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023- yil 30- aprel.
4. Mirziyoev Sh, "Yangi O'zbekiston. Taraqqiyot strategiyasi" kitobi, 2023-yil, Toshkent
5. Rafiqov Q, "Vatan va millat qayg'usi" kitobi, 2020-yil, Toshkent
6. K.Rafiqov, "Bizni ulug' g'oya Vatan birlashtiradi" nomli maqolasi. "Ishonch" gazetasining 2022-yil 1 noyabrdagi 135-142-sonlari.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010-y.
8. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-y.
9. Al-G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dār al-Sha'b, 1937-y.
10. Al-G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. – Qohira: Dār al-Hadith, 2004-y.
11. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1993-y.
12. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-y.
13. Al-G'azzoliy A.H. Mukoshafat ul-qulub. – Qohira: Dār al-Hadith, 2004-y.
14. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, 2022-yil, Toshkent.
15. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997-y.
16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008-y.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010-y.
18. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025- yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
19. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025- yillardagi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).